



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdamova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJIRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitara Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	



IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOYILLARI

Gapparov Azim Qayumovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti o'qituvchisi

Email: gapparovazim@sies.uz

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirishning nazariy asoslari hamda asosiy tamoyillari kompleks tarzda yoritilgan. Tadqiqot doirasida ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishining iqtisodiy mazmuni, moliyalashtirish jarayonining institutsional mexanizmlari va ularning samarali ishlashini ta'minlovchi omillar tahlil qilingan. Davlat budjeti mablag'lari, budjetdan tashqari jamg'armalar, xususiy investitsiyalar va davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyalashtirish shakllarining afzalliklari hamda cheklovlari ochib berilgan. Shuningdek, moliyalashtirishda maqsadlilik, shaffoflik, tejamkorlik, samaradorlik va barqarorlik tamoyillariga amal qilish ijtimoiy obyektlar qurilishining sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etishi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy obyektlar, qurilish xizmatlari, moliyalashtirish mexanizmi, davlat budjeti, investitsiyalar, davlat-xususiy sheriklik, moliyaviy tamoyillar, samaradorlik.

Abstract. This scientific article comprehensively covers the theoretical foundations and basic principles of financing construction services in social facilities. Within the framework of the study, the economic content of the construction of social infrastructure facilities, institutional mechanisms of the financing process, and factors ensuring their effective functioning were analyzed. The advantages and limitations of state budget funds, extra-budgetary funds, private investments, and forms of financing based on public-private partnerships are revealed. It is also scientifically substantiated that adherence to the principles of targeting, transparency, economy, efficiency, and sustainability in financing plays an important role in the high-quality and timely implementation of the construction of social facilities.

Key words: social facilities, construction services, financing mechanism, state budget, investments, public-private partnership, financial principles, efficient.

Аннотация. В данной научной статье комплексно освещены теоретические основы и основные принципы финансирования строительных услуг на социальных объектах. В рамках исследования проанализированы экономическое содержание строительства объектов социальной инфраструктуры, институциональные механизмы процесса финансирования и факторы, обеспечивающие их эффективное функционирование. Раскрыты преимущества и ограничения средств государственного бюджета, внебюджетных фондов, частных инвестиций и форм финансирования на основе государственно-частного партнерства. Также научно обосновано, что соблюдение принципов целесообразности, прозрачности, экономичности, эффективности и устойчивости в финансировании имеет важное значение в качественном и своевременном осуществлении строительства социальных объектов.

Ключевые слова: социальные объекты, строительные услуги, механизм финансирования, государственный бюджет, инвестиции, государственно-частное партнерство, финансовые принципы, эффективность.



KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholi turmush darajasini oshirish, ijtimoiy xizmatlar sifati va qamrovini kengaytirish hisoblanadi. Mazkur jarayonda ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash obyektlari, maktabgacha ta'lim tashkilotlari, madaniyat va sport inshootlari, shuningdek, boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega obyektlar qurilishi muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy obyektlar nafaqat aholi ehtiyojlarini qondirish, balki hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlash, inson kapitalini shakllantirish va iqtisodiy faollikni oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. Shu bois ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini samarali va oqilona moliyalashtirish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, qurilish jarayonida moliyaviy resurslardan maqsadsiz foydalanish, mablag'larning kechiktirib ajratilishi yoki moliyalashtirish mexanizmlarining yetarli darajada takomillashmaganligi loyihalarning cho'zilishiga, xarajatlarning ortishiga va qurilish sifati pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ijtimoiy obyektlar qurilishida moliyalashtirishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish hamda ushbu jarayonda amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy tamoyillarni ilmiy jihatdan asoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirishning mohiyati, iqtisodiy mazmuni va nazariy yondashuvlari tahlil qilinib, moliyalashtirish jarayonida maqsadlilik, shaffoflik, samaradorlik, tejamkorlik va barqarorlik tamoyillarining o'rnini ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy obyektlar qurilishini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirish masalalari iqtisodiy nazariya va amaliyotda keng o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar asosan davlat moliyasi, investitsiyalarni boshqarish, infratuzilmani rivojlantirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlariga bag'ishlangan. Ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy obyektlar qurilishi jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida baholanadi va ularni moliyalashtirishda davlatning yetakchi roli alohida ta'kidlanadi [1].

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda budget mablag'larining cheklanganligi sharoitida muqobil moliyalashtirish manbalarini jalb etish zarurligi asoslab berilgan [2].

Bir qator olimlar ijtimoiy obyektlar qurilishini moliyalashtirishning nazariy asoslarini tahlil qilar ekan, ushbu jarayonning samaradorligi moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilish tizimiga bevosita bog'liqligini ko'rsatib o'tadilar [3]. Xususan, moliyalashtirishda maqsadlilik va shaffoflik tamoyillariga rioya etilishi mablag'lardan oqilona foydalanish va korrupsion holatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ilmiy manbalarda keng yoritilgan [4].

Shuningdek, adabiyotlarda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini moliyalashtirishda investitsion yondashuvning ahamiyati alohida o'rin tutadi. Tadqiqotchilar xususiy investitsiyalarni jalb etish orqali davlat yukini kamaytirish, qurilish jarayonining texnologik va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash mumkinligini ta'kidlaydilar [5].

Bu borada davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi eng samarali vositalardan biri sifatida baholanib, uning nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi ko'plab ilmiy ishlarning markazida turadi [6].

O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida esa ijtimoiy obyektlar qurilishini moliyalashtirishning milliy xususiyatlari, davlat budjeti va budjetdan tashqari jamg'armalarning roli, hududiy rivojlanish omillari bilan bog'liq jihatlar keng yoritilgan [7].

Ularning fikricha, moliyalashtirishda barqarorlik va tejamkorlik tamoyillariga amal qilish uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi [8].

Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni oshirish, buxgalteriya hisobi hamda iqtisodiy tahlilni takomillashtirish, xususan, ularni moliyalashtirish masalalari bo'yicha xorijlik olimlardan B.K. Subash [9], Duncan Cortlidge [10], Puneet Kuthila [11], mahalliy olimlarimizdan esa N.B. Abdusalomova [12], A.I. Aliqulov [13], T.I. Yahyoyev [14] kabilar o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirishning nazariy-asosiy tamoyillari yetarlicha o'rganilgan bo'lsa-da, ularni zamonaviy sharoitda, xususan, raqamlashtirish, budget intizomini kuchaytirish va davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish nuqtayi nazaridan takomillashtirish dolzarb ilmiy masala bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilishi natijasida grafik tahlil, statistik va tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, abstrakt va mantiqiy, analiz va sintez usullaridan foydalanilgan.



TAHLIL VA NATIJALAR

Ijtimoiy infratuzilma – bu jamiyatning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan maktablar, tibbiyot muassasalari, maktabgacha ta'lim obyektlari, sport va madaniyat inshootlari, shuningdek, aholiga bevosita ijtimoiy xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan obyektlar majmuasidir. Ushbu inshootlar davlatning sotsial siyosatini hayotga tadbqiq etishda strategik rol o'ynaydi, chunki ular aholi salomatligi, ta'lim sifati, mehnat unumdorligi va inson kapitali rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ijtimoiy infratuzilma qurilishi davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida doimo dolzarbligini saqlab keladi.

Qurilish xizmatlarini moliyalashtirish nazariyasi iqtisodiyot fanining bir necha muhim yo'nalishlari bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu jarayonda resurslar taqsimoti, jamoat tovarlari konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot va transaksion xarajatlar nazariyasi asosiy metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Jamoat tovarlari nazariyasiga ko'ra, ijtimoiy obyektlar yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, lekin xususiy sektor uchun past daromadlilikka ega bo'lgan obyektlar bo'lib, ularni moliyalashtirishda davlatning bevosita ishtiroki zarur bo'ladi. Bu obyektlar yaratadigan ijtimoiy nafillikning ko'p qismi bozorga qaytmaydi, ammo iqtisodiyotning uzoq muddatli raqobatbardoshligini belgilab beradi. Shu jihatdan, ijtimoiy obyektlarni moliyalashtirishning samaradorligi faqat moliyaviy ko'rsatkichlar orqali emas, balki ularning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri orqali baholanadi.

Transaksion xarajatlar nazariyasi ijtimoiy qurilish sohasida alohida ahamiyatga ega. Chunki qurilish xizmatlari bozorida korrupsiya xavfi, tender jarayonlarining shaffof emasligi, loyihalash va smeta hujjatlarining tez-tez yangilanib turishi kabi omillar moliyaviy oqimlarning buzilishiga olib keladi. Bu xarajatlar samaradorlikni pasaytiradi, loyihaning yakuniy qiymati oshadi va qurilish muddatlari cho'ziladi. Shuning uchun samaradorlik tahlilida transaksion xarajatlar tahlilini alohida blok sifatida kiritish zamonaviy ilmiy yondashuvga aylanmoqda.

Zamonaviy iqtisodiyotda qurilish xizmatlarini moliyalashtirish samaradorligini baholashda uch asosiy paradigmaning integratsiyasi kuzatiladi. Birinchisi, klassik investitsion samaradorlik modeli bo'lib, unda loyihaning sof joriy qiymati (NPV), ichki rentabellik me'yori (IRR), rentabellik indeksleri, qaytish muddati kabi ko'rsatkichlar qo'llanadi. Ikkinchisi, ijtimoiy ta'sirni o'lchovchi model bo'lib, unda loyiha aholining turmush sifati, xizmatlar qamrovi, inson kapitaliga qo'shgan hissi orqali baholanadi. Uchinchisi, zamonaviy raqamli baholash modeli bo'lib, unda BIM, GIS, Big Data va monitoring tizimlari orqali xarajatlar va resurslarni real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi. Ushbu yondashuvlarning uyg'unlashuvi ijtimoiy obyektlar uchun moliyalashtirish samaradorligini yanada aniqlik bilan baholash imkonini beradi.

Mablag'lar samaradorligi kategoriyasining iqtisodiy mohiyatida ikki qatlam mavjud: iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy samaradorlik. Iqtisodiy samaradorlik – bu resurslarning eng kam xarajat bilan eng katta foyda keltirishi. Ijtimoiy samaradorlik esa aholining farovonligi, sog'lom hayot kechirish imkoniyatlari, ta'lim olish sifati va ijtimoiy tenglikka ta'sir ko'rsatish orqali namoyon bo'ladi. Ijtimoiy obyektlar uchun haqiqiy samaradorlik faqat shu ikki omil birlashganda shakllanadi. Shu sababli ijtimoiy obyektlar qurilishi uchun samaradorlikni baholashda ko'p mezonli integratsion yondashuv talab qilinadi.

Qurilish jarayonida moliyaviy oqimlarning boshqaruvi ham ushbu bobning nazariy asoslaridan birini tashkil etadi. Moliyaviy oqimlarning nazorati, ularning bosqichma-bosqich ajratilishi, smeta xarajatlarida yuzaga keladigan tafovutlarni boshqarish, narxlarning o'zgaruvchanligi va inflyatsion shoklarning ta'sirini kamaytirish kabi jarayonlar iqtisodiy samaradorlikni belgilab beruvchi muhim omillardir. O'zbekiston sharoitida bu masala ayniqsa dolzarb, chunki narxlarning o'zgaruvchanligi, qurilish materiallari importiga bog'liqlik va tender jarayonlarining murakkabligi moliyaviy oqimlarning samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Nazariy jihatdan muhim yondashuvlardan yana biri – hayotiy sikl xarajatlarini (LCC) baholash metodidir. Bu yondashuv qurilish obyektining nafaqat qurilish davridagi xarajatlarini, balki ekspluatatsiya, ta'mirlash, modernizatsiya va xizmat ko'rsatish xarajatlarini ham o'z ichiga oladi. Ijtimoiy obyektlar uchun aynan shu yondashuv real samaradorlikni aniqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, arzon materiallardan qurilgan maktab 5 yil ichida kapital ta'mir talab qiladi; bu esa boshlang'ich tejamkorlikka qaramay, umumiy sikl xarajatlarini oshirib yuboradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirishning nazariy-asosiy tamoyillari har tomonlama tahlil qilinib, ushbu jarayonning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim o'zni ilmiy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishi aholi farovonligini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va hududlarning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularni moliyalashtirish masalasiga kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi.

O'rganishlar davomida aniqlanishicha, ijtimoiy obyektlar qurilishini moliyalashtirishda davlat budjeti asosiy manba bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, budjet resurslarining cheklanganligi sharoitida budjetdan tashqari jamg'armalar, xususiy investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish



zarurati tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar moliyaviy yukni kamaytirish, qurilish jarayonining sifat va samaradorligini oshirish hamda zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirish jarayonida maqsadlilik, shaffoflik, samaradorlik, tejamkorlik va barqarorlik tamoyillariga qat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tamoyillar moliyaviy resurslarning oqilona taqsimlanishini ta'minlabgina qolmay, mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish, korrupsion holatlarning oldini olish hamda qurilish ishlarining o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyaviy manbalarni diversifikatsiya qilish va zamonaviy moliyaviy boshqaruv tamoyillarini amaliyotga keng joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy obyektlar qurilishini moliyalashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqola ijtimoiy obyektlarda qurilish xizmatlarini moliyalashtirish samaradorligi masalasi faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan chegaralanmasligini, balki keng ko'lamli nazariy asoslar — jamoat tovarlari konsepsiyasi, institutsional iqtisodiyot, transaktsion xarajatlar nazariyasi, hayotiy sikl yondashuvi, raqamli monitoring tizimlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice. - New York: McGraw-Hill, 2019.
2. Rosen H.S., Gayer T. Public Finance. - 11th edition. - New York: McGraw-Hill Education, 2021.
3. Flyvbjerg B. The Oxford Handbook of Megaproject Management. - Oxford: Oxford University Press, 2020.
4. Shah A. Budgeting and Budgetary Institutions. - Washington, DC: World Bank Publications, 2020.
5. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships: Principles of Policy and Finance. - 2nd edition. - London: Butterworth-Heinemann, 2018.
6. Grimsey D., Lewis M.K. Public Private Partnerships and Public Procurement. - Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2020.
7. Xudoyberdiyev S.S. Davlat budjeti va budjet tizimi. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
8. Abdullayev A.X., Karimov B.T. Ijtimoiy infratuzilma obyektlarini moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. - 2022. - №4. - B. 45–53.
9. B.K.Subash, "Construction management" textbook, Nepal-2022 142 c.
10. Duncan Cortlidge "Construction Project Manager"s" textbook, Californiya-2024 82 c.
11. Puneet Kuthila "Battle Field Project Management" textbook, India-2024, 148 c.
12. N.B.Abdusalomova "Accounting (parts I-II-III)" textbook. "Innovative Development Publishing House" Tashkent 2021.
13. A.I.Aliqulov va boshqalar, "Moliyaviy tahlil" darslik. T-2021,-187-b.
14. Yahyoyev To'liq Ismatulla o'g'li, Qurilish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar samaradorligini oshirishda aktivlar tahlilini takomillashtirish, 08.00.05 – "Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti", 08.00.08 – "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI, Samarqand – 2025, <https://api.ziynet.uz/uploads/books/10001253/hodL3sAkOfxmT2y.pdf?p0mlltcyn6yadl413qZsp>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>